

**SIMMENTAL ZOTLI SIGIRLARNING 100 KG TIRIK VAZN HISOBIGA  
SUT MAHSULDORLIGINI ISHLAB CHIQARISH KO'RSATKICHLARI  
ПОКАЗАТЕЛИ ПРОИЗВОДСТВА МОЛОКА НА 100 КГ ЖИВОГО ВЕСА  
КОРОВ СИММЕНТАЛЬСКОЙ породы  
MILK PRODUCTION INDICATORS PER 100 KG LIVE WEIGHT OF  
SIMMENTAL COWS**

*Assistent: Nortasheva M.A., dotsent M.K.Narbayeva,  
talabalar: Qurbanova M.Sh., Boboqulova O.N., Shuxratov M.B., Eshonqulov S.K.  
Accisstent: Норташева М.А., доцент М.К.Нарбаева, студенты: Курбанова  
М.Ш., Бобокулова О.Н., Шухратов М.Б., Эшанкулов С.К.  
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar  
universiteti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Qiziltepa hududida joylashgan "Bobur Murodalievich" qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligida simmental zotining yuqori tirik vazninga ega sigirlarining sut mahsuldorligi, oziqlantirish sharoiti hamda iqtisodiy samaradorligi haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Аннотация:** В статье представлены сведения о надоях молока, условиях кормления и экономической эффективности коров симментальской породы с высокой живой массой в КРС «Бабур Муродалиевич», расположенному в селе Кзылтепа Камашинского района Каракадаргинской области.

**Abstract:** This article presents information on milk yield, feeding conditions and economic efficiency of Simmental cows with high live weight in the livestock complex "Babur Murodalievich", located in the village of Kyzyltepa, Kamashinsky district, Kashkadarya region.

**Kalit so'zlar:** qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi simmental, qora-ola golshtin, zotlarini, oziqlantirish, tirik vazni, sut, sog'im, soffoyda, rentabellik.

**Ключевые слова:** симментальская, черная голштинская породы, кормление, живая масса, молоко, чистая прибыль, рентабельность.

**Keywords:** cattle specialty farm, simmental, black and white Holstein, breeds, feeding, live weight, milk, milking, net profit, profitability.

Respublikamiz chorvachiligidagi qoramolchilik yetakchi o'rinni egallaydi. Chunki ishlab chiqarilayotgan va aholi iste'molidagi sutni asosiy qismini sigir suti tashkil qiladi. Go'sht strukturasida qoramol go'shti birinchi o'rinda turadi. Shuning uchun ham tarmoqni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, tashkiliy zootexnikaviy seleksion va iqtisodiy tadbirlar o'z vaqtida samarali ravishda tashkil etilmoqda.

Chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarini joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilgan sifatli va arzon chorva mahsulotlari bilan uzlusiz ta’minalash hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash maqsadidagi Ozbekiston respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan qarorida mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini davlat tomonidan qo’llab-quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida bir nechta dasturlar imzolangan:

Respublikamiz qoramolchiligidagi keyingi yillarda naslchilik bazasini mustahkamlash va yuqori mahsuldor podalar yaratish maqsadida qoramolchiligi rivojlangan Yevropa davlatlaridan turli mahsuldorlik yo‘nalishidagi zotlarga mansub qoramollar keltirilmoqda. Bu qoramollar mahsuldorligi bo‘yicha yuqori irsiy salohiyatga ega, lekin ular bunday mahsuldorligini faqat to‘la qiymatli oziqlantirish va maqbul asrash sharoitlarida yuzaga chiqaradilar.

Bu zotlarni takomillashtirishda nafaqat to‘la qiymatli oziqlantirish, balki seleksiya-naslchilik ishlarini yaxshilash, ayniqsa avlodlarining nasl sifati bo‘yicha baholanib, yaxshilovchi nasl toifasiga ega nasldor buqalardan keng foydalanish va podalarda yuqori mahsuldor sigirlarning oilalarini va nasldor buqalarning yuqori mahsuldor leniyalarini yaratish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Sermahsul sigirlardan turli seleksiya guruhlari negizida ularning yangi podasini yaratish usullarini ishlab chiqish esa nafaqat zotlarni takomillashtirish, balki ularning bosh sonini ko‘paytirish va tarqalish arealini kengaytirishda alohida ahamiyat kasb etadi

**Material va metodlar.** Ilmiy tadqiqot ishining tajriba qismi Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani Qiziltepa hududida joylashgan “Bobur Murodaliyevich” qoramolchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaligida amalga oshirildi. Sut ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda sigirlarning ozuqani sut bilan qoplash darajasi alohida amaliy ahamiyat kasb etadi va sigirlardan sutbop podalarda foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Ayniqsa turli tirik vaznga ega sigirlarning sut mahsuldorlik darajasini o‘rganish, ozuqani sut bilan qoplash ko‘rsatkichlarini baholash muhim va dolzarb vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi. Buning uchun o‘xshashlik asosida sof zotli simmental zotining yuqori tirik vazniga ega sigirlarining sut mahsuldorligiga bog‘liqligini, pushtdorlik xususiyati, asrash sharoiti, iste’mol qilgan oziqasini tirik vazn bilan qoplashi xususiyatlari o‘rganish rejalashtirilgan. Tajriba uchun 2 laktatsiyadagi har xil tirik vazndagi sigirlarda I-guruhga 500-550 kg, II-guruhga 560-590kg, III-guruhga 600 va 600dan yuqori tirik vazniga ega bo‘lgan sigirlar ajratilgan.

**Natijalar va ularning tahlili:** Xo‘jalikda sigirlar qish va bahor fasllarining qorli va yomg‘irli kunlarda molxonada saqlanadi. Qolgan vaqtarda sigirlar asosan molxona oldiga qurilgan yayratish maydonida boqiladi. Yayratish maydonining bir qismiga uzunligi molxonaning

uzunligiga teng keladigan ayvon qurilgan. Bu ayvon sigirlarni yoz faslida quyoshning tik nuridan, qish va bahor fasllarida esa yog‘ingarchiliklardan saqlaydi.

Xo‘jalikda sigirlar sog‘ish uchun alohida bino mavjud bo‘lib, bir vaqtning o‘zida 10 bosh sigir uch taktli sog‘ish uskunasida sog‘iladi. Sigirlardan sutbop podalarda foydalanish samaradorligini baholashda har 100 kg tirik vazn hisobiga sut mahsuloti ishlab chiqarish kursatkichlarini o‘rganish alohida ahamiyatga ega. Sigirlarning yuqori sut mahsuldorligini ta’minlovchi maqbul tirik vaznni aniqlash sut ishlab chiqarishni ko‘paytirishni ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib biz tajriba guruhlaridagi sigirlarning sut mahsuldorlik darajasini tirik vazniga bog‘liqlikda o‘rgandik.



### **Sigirlarning har 100 kg tirik vazni hisobiga sut mahsuloti chiqimi, kg n=10**

Ko‘rsatkichlar	Guruxlar		
Tirik vazni, kg	552,6±2,40	595,8±1,41	655,8±1,41
Sut miqdori, kg	4740,2±92,6	4949,0±104,6	5205,5±111,0
Har 100 kg tirik vazni hisobiga ishlab chiqarilgan:			
Sut chiqimi, kg	858,4	831,0	794,0
4%-li sut	839,0	808,0	767,0
Sut yog‘i chiqimi	37,2	36,8	

**1-jadval**

1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinishicha, II laktatsiyada barcha guruhlardagi sigirlar har 100 kg tirik vazni xisobiga yuqori darajada sut mahluloti ishlab chiqarish ko‘rsatkichlariga

ega bo‘ldi. Bunda II va III tajriba guruqlaridagi sigirlar ko‘rsatkichlaridan tegishli ravishda I tajriba guruhidagi sigirlarning vazn hisobiga ishlab chiqargan sut miqdori tegishlichcha 27,4 va 64,4 kg, sut yog‘i chiqimi 0,4 va 0,8 kg, 4%-li sut miqdori 31,0 va 72 kg yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

**Xulosa.** Tajriba guruqlaridagi sigirlarning laktatsiyadan qat’iy nazar, har 100 kg tirik vazni hisobiga sut maxsuloti chiqimi yuqori darajada bo‘lgan. Bunday sigirlardan foydalanish samaradorligini oshirishda hamda yuqori sermahsul podalar yaratishda muhim omil ekanligidan dalolat beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nortasheva, M., Suyunov, S., Bekqulov, M., Tuyg‘unov, M., & Zulfiqarov, K. (2023). Tajriba Guruhidagi Sigirlarning Laktatsiyasining Kechish Xususiyatlari. *Miasto Przyszlosci*, 42, 189-191.
2. Nortasheva, M. A., Abdujalilov, X. U., Xabibullayev, X. M., & Najmuddinov, Q. P. (2024). Feeding and Keeping Conditions of Animals in Separate Groups for Study on the Farm. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 3(1), 579-581.
3. Сулейманова, М. К., Суюнова, З. Б., Норташева, М., & Бердикулов, Ф. ИШ. (2024). РОСТ И РАЗВИТИЕ ПОТОМСТВА ОВЕЦ РАЗНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТИПОВ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ МОЛОЧНОСТИ МАТОК. *International Journal of Formal Education*, 3(3), 361-366.
4. Nomozov, H. I., Nortashyeva, M., & Narbayeva, M. K. (2023). DEPENDENCE OF LIVE WEIGHT OF MILK YIELD OF HOLSTEIN COWS. *Modern Science and Research*, 2(5), 424-428.
5. Nortasheva, M. A., Shomatov, S., & Xasanova, U. (2022). TAJRIBA GURUHLARDAGI SIGIRLARNING SUT MAHSULDORLIGI KO ‘RSATKICHLARI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 28-30.